

CHET TILINI O'RGANISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

*Andijon davlat chet tillari instituti
 Ingliz filologiyasi, o'qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti
 Ingliz tili integrallashgan kursi kafedrasi
 Ingliz tili yo'nalishi
 1-bosqich 103-guruh talabasi
 O'rino boyeva Surayyo
 Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (phd) N.M.Qodirova*

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalarning chet tilini o'rganishdagi ahamiyati hamda ulardan to'g'ri va samarali foydalanish yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, bu jarayonda qo'llaniladigan texnologiyalarning turlari, afzallikkleri va qo'llanilishi haqida so'z boradi. Hozirda davlatlararo xalqaro munosabatlar rivojlangan va bunda chet tilini bilish muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: zamonaviy texnologiyalar, chet tili, muloqot, internet, sun'iy intellekt, qulayliklar.

Abstract: This article presents information on the importance of modern technologies in learning a foreign language and their correct and effective use. It also discusses the types, advantages and applications of technologies used in this process. Currently, international relations between states have developed, and knowledge of a foreign language is important in this.

Keywords: modern technologies, foreign language, communication, internet, artificial intelligence, convenience.

Аннотация: В данной статье представлена информация о важности современных технологий в изучении иностранного языка и их правильном и эффективном использовании. Также рассказывается о типах, преимуществах и применении технологий, используемых в этом процессе. В настоящее время межгосударственные международные отношения развиты, и важное значение в этом имеет знание иностранного языка.

Ключевые слова: современные технологии, иностранный язык, общение, Интернет, искусственный интеллект, удобства.

Hozirgi texnika va texnologiya tezlik bilan rivojlanib borayotgan paytda ta'lim sohasida zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish davr talabidir. Chet tillarini o'qitishda ham eng so'nggi texnologiya va metodlardan foydalanish o'rganilayotgan tilni tez, samarali, qulay va qiziqarli tarzda o'rganishga yordam beradi. Shularni inobatga olgan holda, mamlakatimizda chet tilini o'qitishga katta e'tibor

qaratilgan va ta'lim sohasida xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qonunlar, qarorlar va qo'shimcha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yurtimizda chet tilini o'qitishga bo'lgan e'tiborning kuchayganini 2013-2014 – yilda qabul qilingan prezident qaroridan ham bilishimiz mumkin. Ushbu qarorga ko'ra Respublikamizning barcha hududlarida chet tilini, asosan, ingliz tilini o'rganish umumta'lim maktablarining birinchi sinflaridan boshlanishi aytib o'tilgan. 2017-yil 11-avgustdagi 610-sonli qarorga muvofiq 2017-2018 o'quv yilidan boshlab ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tilini o'zlashtirish darajasini davlat ta'lim standartlarida belgilangan "Tinglab tushunish" (Listening), "O'qish" (Reading), "Yozish" (Writing), "Gapirish" (Speaking) ko'nikmalari asosida baholab borish mexanizmini ishlab chiqildi, amaliyotga joriy etilmoqda, ya'ni Respublikamizda umumyevropa til kompetensiyalari doirasi(CEFR-Common European Framework of Reference of Languages) asosida chet tili o'rganiladi va baholanadi. 2022-yil 19-yanvarda qabul qilingan "Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror mamlakatimizda chet tillarini o'qitish sifatini oshirishga qaratilgan muhim hujjatdir. Bu qarorga muvofiq, davlatimizning barcha hududlaridagi maktablarni xorijiy tillarni o'qitish uchun zarur bo'lgan adabiyotlar, asbob-uskunalar va zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta'minlash maqsadida mahalliy budjetlardan kamida 1 milliard so'm ajratishi belgilangan.

Chet tillarini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnikalardan samarali foydalanish juda muhim, chunki texnologik vositalar chet tilini o'rganishning har bir bo'limi, ya'ni o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirishni rivojlantirishda samarali usuldir. Misol uchun, ma'lum bir chet tilini o'rganishning eng muhim qismidan biri bo'lgan tinglab tushunish ko'nikmasini oshirish uchun, albatta, elektron uskunalar (kompyuter, mobile telefon, CD disk, planshet) kerak bo'ladi. Bu vositalar orqali o'quvchi xorijiy tildagi audio eshitish imkoniga ega bo'ladi va so'zlarning taffuzi, grammatik tuzilishi kabi jihatlarini chuqurroq o'rganadi. Tinglab tushunish gapirish malakasini rivojlantirishda ham asosiy rol o'ynaydi, chunki suhbatlarni eshitish davomida so'zlarni qay usulda qo'llash kerakligini va gapirish uchun zarur bo'lgan boshqa ko'nikmalarni oshirishda yordam beradi.

Bugungi globallashuv va xalqaro munosabatlar rivojlangan davrda hayotimiz internet tarmog'i bilan uzviy bog'liq. Bulardan til o'rganishda va o'rgatishda yangicha yondashuv asosida tog'ri va unumli foydalanish eng yaxshi yo'l hisoblanadi, chunki internet bizga o'rganadigan tilimizda shu tilda so'zlashuvchilar bilan muloqot qilish imkonini beradi. Hozirda buning uchun ko'plab ilovalar va web-saytlar mavjud. Masalan, Lingbe, Speaky, Hello talk va boshqalar. Bu mobil ilovalar til almashinuvni uchun ishlataladi, ya'ni unda chat, ovozli va video qo'ng'iroqlar orqali chet tili o'rganuvchilari bilan . Muloqotni yaxshilashning eng zamonaviy va samarali usullaridan biri bu hozirgi davrning eng so'ngi texnologiyalardan bo'lgan sun'iy

intellektdir. U yordamida biz grammatik xatolarimizni to'g'rilashimiz va talaffuzimizni baholay olishimiz mumkin. Bundan tashqari istalgan paytda virtual muloqot qilish imkoniyatiga egamiz.

Elektron doska, `ovozi kuchaytirgich, proyektor va boshqa raqamlı texnologiyalar orqali darslarni o'tishda chet tilidagi kino, multfilm, qiziqarli videoroliklarni tomosha qilish kabi turli usullardan foydalanilsa, eshitish, gapirish ko'nikmalari oshadi va o'quvchining til o'rganishga bo'lgan qiziqishi ortadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining xorijiy tilni o'rganishida bu vositalardan foydalanish samarali usullardan biri hisoblanib, katta yoshdagi insonlarga ham boshqa bir tilni mustaqil o'rganish imkonini beradi. Texnologiyalar rivojlangani sayin bu turdagи materiallarni topish va ulardan foydalanish sezilarli darajada osonlashdi. Elektron va audio kitoblar, onlayn lug'atlar kabi onlayn resurslar chet tillarini o'rganishda asosiy manba sifatida foydalanib kelinmoqda.

Xulosa qilib aytganda, chet tilini o'rganishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni beqiyos. Yurtimizda bu sohada katta imkoniyatlar yaratilgan. Ilg'or texnologiyalardan til o'rganishda to'g'ri foydalanish, o'zlashtirish jarayonini tezlashtiradi va o'rganuvchining qiziqishini oshirishga yordam beradi. Shu tufayli ta'linda qo'llaniladigan har bir yangi texnologiyalarni o'rganish va tatbiq etish har bir pedagog va o'rganuvchining vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 11.08.2017 yildagi 610-son <https://lex.uz/docs/-3304915>
2. "CHET TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING UMUMIY SAMARADORLIGI OSHIRISH YO'LLARI" Xolto'rayeva Hulkar Xurram qizi